

## ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA MILLIY VA UMUMINSONIY G'OYALAR TALQINI

*Ibrohimova Muxabbat Anvarjon qizi,  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi  
[ibrohimovamuxabbat974@gmail.com](mailto:ibrohimovamuxabbat974@gmail.com)*  
*Buriyeva Firuza Normurotovna,  
Ilmiy rahbar: filiologiya fanlari bo'yicha falsafa doctori (PhD),  
O'zFiPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi,*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada badiiy asarning yashovchanligi, umrboqiyligini belgilovchi masalalardan biri asar mavzusi va g'oyaviyligi xususida so'z yuritiladi. Zero, adabiyotshunoslikda she'riy asarlardagi milliy va umuminsoniy g'oyalar talqiniga bag'ishlangan tadqiqotlarga ehtiyoj hamisha mavjuddir. Asarlarini ushbu jihatdan mukammal yarata olgan o'zbek adabiyoti namoyandalaridan biri, shubhasiz, Abdulla Oripovdir. Sho'ir she'riyati insoniyat va odamiylik, nabotot va hayvonot, shuningdek, milliy ruh tuyg'usi bilan bog'liq g'oyalar ila sug'orilgan bo'lib, shu bois ular bugungi kun uchun ahamiyatli, yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda eng kerakli manba bo'la oladi, deb bemalol ayta olamiz.

**Kalit so'zlar.** She'riyat, g'oya, vatanparvarlik, sevgi, inson, sho'ir, ijod, hayot.

## ABDULLA ARİPOV'UN ŞİİRİNDE MİLLİ VE EVRENSEL FIKİRLERİN YORUMU

*Ibrohimova Mukhabbat Anvarjon kizi,  
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi  
Buriyeva Firuza Normurotovna,  
Bilimsel danışman: filoloji Bilimleri Doktoru (PhD),  
ÖzFiPI Özbek dili ve edebiyati bölümü öğretim görevlisi*

**Özet.** Bu makalede bir sanat eserinin uygulanabilirliğini ve uzun ömürlülüğünü belirleyen konulardan biri olan tema ve ideoloji tartışılmaktadır. Zira edebiyat araştırmalarında şairsel eserlerde millî ve evrensel düşüncelerin yorumlanmasına yönelik araştırmalara her zaman ihtiyaç vardır. Özbek edebiyatının bu alanda kusursuz eserler ortaya koyabilen temsilcilerinden biri de hiç şüphesiz Abdulla Oripov'dur. Şairin şiirleri, insanlık ve insanlığa, bitki örtüsüne ve hayvanlara ilişkin fikirlerle, ayrıca millî ruh duygusuyla doludur ve bu nedenle bunların günümüz için de geçerli olduğunu ve gençlere insanlık ve vatanseverlik ruhuyla eğitim vermenin en gerekli kaynağı olabileceğini rahatlıkla söyleyebiliriz.

**Anahtar kelimeler.** Şiir, fikir, vatanseverlik, aşk, kişi, şair, yaratıcılık, yaşam.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ИДЕЙ В ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ АРИПОВА

*Иброхимова Мухаббат Анваржон кызы,  
Студентка Узбекско-Финского педагогического института  
Буриева Фируза Нормуротовна,  
Научный руководитель: кандидат филологических наук (PhD),  
Преподаватель кафедры Узбекского языка и литературы УзФПИ*

**Аннотация.** В статье рассматривается тема и идеология произведения искусства – один из вопросов, определяющих его жизнеспособность и долговечность. Ведь в литературоведении всегда есть потребность в исследованиях, посвященных

интерпретации национальных и общечеловеческих идей в поэтических произведениях. Одним из представителей узбекской литературы, сумевших в этом отношении создать совершенное произведение, несомненно, является Абдулла Орипов. Поэзия поэта проникнута идеями, связанными с человечеством и человечностью, флорой и фауной, а также чувством национального духа, и поэтому можно смело сказать, что они актуальны на сегодняшний день и могут стать самым необходимым источником для воспитания молодежи в духе гуманизма и патриотизма.

**Ключевые слова.** Поэзия, идея, патриотизм, любовь, человек, поэт, творчество, жизнь.

## INTERPRETATION OF NATIONAL AND UNIVERSAL IDEAS IN THE POETRY OF ABDULLA ORIPOV

*Ibrohimova Mukhabbat Anvarjon qizi,  
Student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute  
Buriyeva Firuza Normurotovna,  
Scientific advisor: PhD in Philological Sciences,  
Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature, UzFPI*

**Abstract.** This article discusses the theme and ideology of a work, one of the issues that determine the viability and longevity of a work of art. After all, there is always a need for research on the interpretation of national and universal ideas in poetic works in literary criticism. One of the representatives of Uzbek literature who was able to create his works perfectly in this regard is undoubtedly Abdulla Oripov. The poet's poetry is imbued with ideas related to humanity and humanity, flora and fauna, as well as national spirit, therefore we can safely say that they are relevant for today and can be the most necessary source for educating young people in the spirit of humanity and patriotism.

**Keywords.** Poetry, idea, patriotism, love, person, poet, creativity, life.

Abdulla Oripov she'riyat olamiga so'nmas shijoat, kuchli ishtiyooq, yorqin iste'dod, o'tkir tafakkur, serjilo tuyg'ular va o'zining uslub va ohangi bilan kirib kelib, XX asr o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biriga aylangan. O'zidan o'chmas nom, naqadar boy meros qoldirganki, uning ijodi bugungi kunda ham tarbiya vositasi bo'la oladi desak, adashmaymiz. Shoiring har bir she'ridan teran ma'no anglash mumkin, ya'ni she'rлari insoniy kechinmalar, milliy va umuminsoniy g'oyalar singdirilganligi bilan kitobxinlar qalbidan joy olib ulgurgan. Ezgu g'oyalar, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik singari falsafiy ma'no-mazmun mujassamligini shoiring qator she'rлarida ko'rib o'tamiz:

*Yonma-yon bitikmiz taqdir toshida,  
Birimiz yoqa-yu birimiz yengmiz.  
Rasululloh demish: - Haqning qoshida  
Taroq tishlaridek barchamiz tengmiz [1.26].*

Shoiring "Tenglik" deb nomlangan mazkur she'rida jamiyatdagi barcha insonlar uchun tegishli bo'lgan tenglik tushunchasi qalamga olingan. Bizga ma'lumki, teng huquqlilik davlatimiz qomusida ham fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlab qo'yilgan. Shoир ham o'z she'ri orqali har bir inson yaratganning suygan bandasi ekanini, oqmi qorami, boymi kambag'almi, yaxshimi yomonmi allohnинг dargohida har bir kishi taroq tishlari kabi teng ekanligini anglatmoqchi bo'ladi. Shuningdek, shoир she'rлari orasida ajdodlarimizdan o'tib kelayotgan muqaddas ona tilimiz – o'zbek tilining himoyasiga da'vat etilgan she'rлarni ham uchratamiz. Jumladan, shoiring "Ona tilim" she'rini yod bilmagan birorta o'zbek bo'lmasa kerak:

*Ona tilim, sen borsan, shaksiz*

*Bulbul kuyin she'rga solaman.*

*Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz.*

*Men ham to'ti bo'lib qolaman [2.397].*

Vatanni sevish, asrab avaylash, xalq taqdiri bilan yashash, istiqlol umidi kabi mavzular vatanparvar shoir she'riyatining bosh mavzusi bo'lib xizmat qilgan. Umuman, xalq, uning dard-u tashvishi, O'zbekiston mavzusi shoir ijodida ayricha bir muhabbat bilan qalamga olinadi. Ona-yurt – jonajon O'zbekiston – Abdulla Oripov eng baland maqomlarda qalamga olgan mavzudir. Shoir bevosita O'zbekistonga she'r bag'ishlaydimi, paxtani madh etadimi, hamma vaqt ko'z o'ngida jafokash xalqimiz, uning muammolari, tashvishlari turadi. Millatning uyg'onishida, milliy g'urur tuyg'ularining chuqur tomir yoyishida, Vatanni tanishning teranlashishida shoir so'zining salmog'i beqiyos bo'ldi. Uning lirk qahramoni O'zbekistonni otashin bir sevgi bilan sevadi [2.398].

Abdulla Oripov she'riyatida tilga olingen mavzularni ulkan bir daraxtga o'xshatadigan bo'lsak, yirik bir shoxini Vatan (milliy istiqlol, tinchlik va boshqalar), yana bir katta shoxni hayot (inson haqidagi mulohazalar) va boshqa yana bir ulkan shoxni sevgi deb nomlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizga ma'lumki, adabiyotda hech bir shoir yoki yozuvchi yo'qli, o'z asarlarida sevgini madh etmagan, muhabbatni tilga olmagan. Shu jumladan, Abdulla Oripov ijodida ham muhabbat shabadalari esib turuvchi satrlar talaygina.

Shoirning butun she'riyatining muhabbat lirkasi ham o'ziga xosligi, teranligi, tuyg'ularning tabiiyligi, hayotiyligi, real voqelikka monandligi bilan ajralib turadi. Sevgi haqidagi hazin, mungli ohanglar har qanday oh-vohlar, o'ldim-kuydimlardan yiroq. Javobsiz muhabbat iztirobi, alami, chuqur insoniy kechinmalar, chinakam sevgi orzumandi bo'lgan katta qalb egasining dard-u dunyosi, hasratlari, yonish-o'rtanishlari, iztiroblari shoir muhabbat lirkasining mazmunini tashkil etadi [2.407] "Muhabbat", "Men seni kuylamoq istayman", "Ilk sevgi", "Yuragimning tubida bir nom", "Sendan yiroqda", "Sen bahorni sog'inmadingmi" kabi she'rlarida sevgi va muhabbatning o'tli nafasi sezilib turadi:

*Mana, bugun navro'zi olam,*

*Do'starimga gullar tutarman.*

*Qaylardasan, sevikli erkam...*

*Qo'limda gul seni kutarman,*

*Umrim bo'yi chorlab o'tarman,*

*Sen bahorni sog'inmadingmi [3.20]?*

Istiqlol umidi bilan yashash, mustaqillik, tichlik, yurt obodligi, xalq farovonligi va birdamligini mustahkamlash shoirning eng oliy maqsadlaridan biri bo'lgan va bu kabi g'oyalar uning ko'pgina she'rlarida o'z aksini topgan. Jumladan, shoirning 2016-yilda yozilgan "Istiqlol yurti" deb nomlangan she'ri mustaqillik mavzusiga bag'ishlangan:

*Yurtim, senga baxshida ko'ngil,*

*Farmon erur menga har so'zing.*

*Yuragimda yigirma besh yil*

*Olib yurgan dardimsan o'zing [4.302].*

Shuningdek, shoir o'z nutqlarining birida ozodlikni shunday e'tirof etadi: "Tarix sahnasiga ozod yurt, ozod millat bo'lib chiqib olish, dunyo xalqlarining e'tirofini qozonish shunchaki aytildigan gap emas. Agar kechagi kunga nazar tashlasak, istibdod davrini bir xayoldan o'tkazsak, qatag'onusi zulmlarni ko'z oldimizga gavdalantirsak, ixtiyorsizlik, qismatga tan berib, o'z huquqimizni birov larga berib qo'ygan damlarni xotirlasak, bugungi O'zbekistonning barcha jabhalardagi yutug'i, nafaqat o'n bir yil, balki o'n bir asrga tengdir, degan xulosaga kelaman. Odamlar ongidagi o'zgarish, Vatanimizning obodligi, yurtimizda ro'y bergan bunyodkorlik ishlari bunga guvoh. Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, ozodlik biga insondek yashash imkonini berdi, zero, o'z yurtida insonday yashagan odamning ertasi umidli bo'ladi [2.225].

Abdulla Oripov she'riyatida tinchlik, ozodlik, tenglik kabi umuminsoniy g'oyalar bilan birgalikda gunoh va savob, jannat va do'zax, Payg'ambar, Ka'batulloh kabi mavzularda yozgan she'rlarida diniy dunyoqarash ham singdirilgan. Shoir o'z she'rlarini hayot bilan hamnafas,

xalqchil, kurashchan qilib ifodalash maqsadida Qur'oni Karim, hadis-u Sharif ohanglaridan ham o'rinli foydalanadi. Xususan, "Haj daftari", "Hikmat sadolari" she'riy to'plamlaridan joy olgan ellikta hadisona she'rlarida shoir diniy libosda namoyon bo'lган ezgu tuyg'ularmi, milliy qadriyatlarimizni mahorat bilan tasvirlab bergen:

*Rasululloh dedi: – Umid qil, banda,  
Ko 'chmasin dunyodan insof, diyonat.  
Nopok odamlarga kuning qolganda,  
Bilgilki, o 'sha kun kelgay Qiyomat [1.20]!*

"Qiyomat" deb nomlangan ushbu she'rda Rasululloh va bir kishining qiyomat ya'ni dunyoning poyoniga yetishi haqidagi suhbati tasvirlangan. She'rda dunyoda qancha nopol, nomard odamlar soni ko'paysa qiyomat ham shunchalik yaqin kelishi va shu bilan birga insonlarni insof va diyonatga chaqirish undovlari sezilib turadi.

Abdulla Oripov qalamga oлган eng katta mavzulardan biri bu olamning gultoji – insondir. Shoир she'riyatida inson haqida yangi haqiqatlarni ochib berish, uni butun murakkabligi bilan tasvirlab berishga oshiqqan. Uning eng katta maqsadlaridan biri insonning murakkab kechinmalarini, ruhiy olamini tadqiq etish, uning hamisha ham oson bo'lavermaydigan fe'l-atvorini anglash bo'lган:

*Inson qalbi bilan hazillashmang Siz,  
Unda ona yashar, yashaydi Vatan.  
Uni jo 'n narsa deb o 'ylamang hargiz,  
Hayhot! Qo 'zg 'almasin bu Qalb daf'atan!..*

Bir tomonidan, o'zida Vatan, til, millat, bashar, kabi umuminsoniy tushunchalarni ifodalagan insonni mukammal ko'rish, unda insof, mehr, diyonat, adolat va odillik, vijdon kabi matlablar tobora noyoblashib borayotganidan tashvihsga tushish, ularni asrashga chaqirish, "asrimiz odam"ining goho idrok qilish mushkul bo'lган sa'y-harakatlaridan yoqa ushslash va shu kabilar shoir ijodida inson talqinining o'ziga xos xususiyatlaridir [2.401].

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Haj daftari. Hikmat sadolari(Ellik hadis). – Toshkent, 1992. -28 b.
2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-jild: She'rlar va dostonlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. - 431 b.
3. Abdulla Oripov. "Birinchi muhabbatim". – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2006. - 91 b.
4. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 8-jild: She'rlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. - 322 b.